

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahan iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 490 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-soni qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassis	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятий в условиях глобального потепления земли.....	34
Кучаров Аброр Сабиржанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , сокисатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills	
of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmn rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati.....	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyeddinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl ulti , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiy fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	
Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuzyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsions menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetydan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	

MUNDARIJA CODER JAHONI



Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Kudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlарining tahlili.....	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatichiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmukamedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендер Аккулай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Targetirovaniye inflatsii v Uzbekistane: predposylki primeneniya i pervyye itogi	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шукратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsions jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari	262
Do'sanov Doniyor , magistr	
Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anjon qizi , Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna , PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadudev So'hrob Jumakulovich , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova , talaba	
Prioryetetnye napravleniya modernizatsii sistemy podgotovki turistskikh kadrov.....	299
Ochilova Xilola Farmonovna , к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz , Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna , tayanch doktorant	



O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna , magistrant	
Ko'zi ojiz shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li , tayanch doktarant	
Оптимизация операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	334
Джуррабаев Отабек Джуррабаевич , доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich , magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли , студент; Абдикиримова Динара Рустамхановна , научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna , Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li , kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna , tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации	373
Д. К. Исмагилов , кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo , PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich , mustaqil tadqiqotchi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language	
Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli , Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidlilagini ta'minlash yo'llari.....	411
Bauyeddinov Majit Janizaqovich	
Addressing the Training Needs of Tourism Staff for Sustainable Practices in the Green Economy Era.....	415
Dadamuxamedova Mushtariy	
Стратегия сокращение бедности и повышения благосостояния населения.....	422
Хайтов Шербек Наимович , Кандидат экономических наук, доцент	
Inson kapitaliga investitsiya kiritishning ilg'or xorij tajribalari va ularni O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	430
Axmadalieva Niholaxon , Toshkent moliya instituti o'qituvchisi	
Пути применения цифровых технологий в организации мониторинга деятельности высших учебных заведений Республики Узбекистан.....	436
Садиков Шохрух Шухратович, Независимый исследователь	
Fundamentals of creating the infrastructure for the use of e-commerce platforms in the digital economy system of Uzbekistan.....	441
Sodikova Dilafruz Zokhid qizi , manager	
Sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxona marketing miks va korporativ imij bilan tizimli munosabatlар modeli.....	449
Eshmatov Sanjar Azimkulovich , i.f.f.d.(PhD)	
Kambag'allikni qisqartirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining tutgan o'rni.....	456
Bararov Sa'dulla Norjigitovich , TDIU Samarkand filiali tayanch doktoranti	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	460
Nosirova Charos , Teacher, Tashkent State University of Economics	
Qorako'lchilik tarmog'i samaradorligini oshirishda agroturistik xizmatlarning o'rni va ahamiyati.....	468
Ж.Я.Нуриллаев , i.f.n. dotsent	
O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning hozirgi holati tahlili.....	474
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich , i.f.n. dotsent	
Davlat ulushini xususiylashtirishda investorlar faolligini ta'minlash yo'llari "uzauto motors" aj ipo amaliyoti misolida.....	481
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsent, PhD	



O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY SOHANI MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Xajihev Baxtiyor Dushaboyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi



Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ijtimoiy sohani davlat tomonidan moliyalashtirish usullari, shakkilari, manbalari va vositalari tahlil qilingan. Shuningdek, daromadlarni qayta taqsimlashda ijtimoiy sohaning o'rni o'rganilgan, ularning samaradorligi baholangan hamda ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: daromadlarni qayta taqsimlash, ijtimoiy soha, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, turizm ijtimoiy munosabatlar.

Аннотация: В данной статье анализируются методы, формы, источники и средства государственного финансирования социальной сферы в Узбекистане. Также изучена роль социального сектора в перераспределении доходов, оценена его эффективность и проанализированы факторы, влияющие на них.

Ключевые слова: перераспределение доходов, социальная сфера, образование, здравоохранение, культура, туризм, социальные отношения.

Abstract: This article analyzes the methods, forms, sources and means of state financing of the social sphere in Uzbekistan. The role of the social sector in the redistribution of income has also been studied, its effectiveness has been assessed, and the factors influencing them have been analyzed.

Key words: income redistribution, social sphere, education, healthcare, culture, tourism, social relations.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida aniq belgilab berilgan. Xususan, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish asosida aholi real daromadlarini izchil oshirish muhim masalalar qatoriga kiritilgan.

Shu nuqtai-nazardan O'zbekistonda daromadlar qayta taqsimotini davlat tomonidan tartibga solish, uning adolatlilagini ta'minlash va samaradorligini oshirish muammolari hozirgi kunning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Ammo, respublikada ushbu muammoga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Bu esa, o'z navbatida, mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini chuqurlashtirishni talab qiladi va tanlangan mavzuning naqadar dolzarb muammoga bag'ishlanganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot ishining maqsadi respublikada ijtimoiy sohani moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy sohani moliyalashtirishning ilmiy-uslubiy, nazariy va amaliy jihatlari alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida xorijlik iqtisodchi olimlardan Smit A., Rikardo D., Keyns Dj.M., Nort D., Makkonel K.R., Bryu S. va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan.

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish muammolari MDH olimlari L.I.Abalkin, L.I.Yakobson, S.G.Shaginyan, G.Kozlova, M.Shagiaxmedov, A.P. Dudevich, T.F.Yutkina, S.I.Ojegov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlardan Sh.Sh.Shodmonov, T.T.Djurayev, A.V.Vahobov, B.B.Berkinov, R.R.Xasanov, A.O'Imasov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ijtimoiy sohani moliyalashtirishning bosqichlari, turlari va amal qilish qonuniyatları muayyan darajada o'rganilgan.



Biroq, hozirgi kungacha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ijtimoiy sohani moliyalashtirish mexanizmlarining amal qilish qonuniyatlari, tamoyillari, ularni davlat tomonidan tartibga solish vositalari, ayniqsa, taqsimot jarayonlarining adolatliligi va samaradorligini aniqlash usullari e'tibordan chetda qolgan. Ushbu holat tanlangan mavzuning dolzarbligini bildiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy abstraksiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduksiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy statistik usul-lardan foydalaniłgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy dunyoning murakkab muammolarini faqat texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy vositalar bilan hal qilib bo'lmaydi. Ijtimoiy soha jamiyatning turli qatlamlariga, turli yoshdag'i odamlarga, daromadlarga, hayotga qarashlariga va boshqalarga ta'sir qiladi, chunki ijtimoiy soha tarmoqlari juda keng ko'lamli. Bular ta'lil, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalardir.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish manbasi va uni tartibga solishning eng muhim vositasi - davlat budjetidir. Davlat budjeti mablag'larini yo'naltirish zarurati bevosita davlat tomonidan muayyan funksiyalarni amalga oshirishdan kelib chiqadi va yalpi ichki mahsulot salmoqli qismini ayni shu sohaga taqsimlanishini belgilaydi. Buni inobatga olgan holda, 2023 yilda ijtimoiy soha va ijtimoiy muhofazaga Davlat budgetidan 129 891 mlrd. so'm ajratilishi rejalashtirilgan. Bu Davlat budjeti umumiy xarajatlarning 50,4 foizini tashkil etadi. Bu xarajatlar ijtimoiy sohani rivojlantirish va ijtimoiy xodimlarni saqlash xarajatlarini moliyalashtirish zarurligini anglatadi.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, bugungi kunda mamlakatda ijtimoiy ehtiyojmand oilalar moliyaviy daromadlarini oshirishda ayollarning bandligini ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega vazifa bo'lib hisoblansadi. Mahallalarda ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etish ishlarini kompleks tashkil etish, "oilabay" yondashuv tizimini joriy etish asosida ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning soni va sifatini oshirishda ayollarga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tahillarning ko'rsatishicha, mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida amalga oshirilgan tizimli chora-tadbirlar bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Xususan, 2001-2020 yillarda mamlakatimizda doimiy aholi soni 9,5 mln. kishiga ortib, 34,6 mln. kishiga yetgan bo'lsa, doimiy aholi tarkibida kam ta'minlangan aholining ulushi ko'rsatkichi o'rganilayotgan davrda qariyb 2,4 martaga kamayib, 11,5 foizni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda kam ta'minlangan aholi ulushi.

Izoh: O'zbekistonda kambag'allik darajasini aniqlash xonodon xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari natijalariga asoslangan holda, Jahon banki tavsiyasiga ko'ra kam ta'minlanganlik darajasi kunlik 2 100 kkal.dan kelib chiqib hisoblangan.

Mamlakatimizda kam ta'minlanganlik darajasi Jahon banki tavsiyalari asosida kunlik 2 100 kkal.-dan kelib chiqib baholanadi. Mazkur uslubiyot asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalariga



ko'ra, respublikamiz hududlari kesimida Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon va Qoraqalpog'iston Respublikalarida kam ta'minlanganlik darajasi yuqori hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilk bor 2020 yilda Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatdagi kam ta'minlanganlik darajasi muammosiga e'tiborni qaratdi: "Hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakatda kam ta'minlangan aholi soni 12-15 foizni (4,5-5,0 mln kishini) tashkil etadi. Oxirgi ikki yilda ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 1,3 marta ko'paydi, nafaqalar miqdori ikki birobarga oshdi. Lekin kam ta'minlangan aholiga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ular miqdorini oshirish orqali ushbu muammo to'liq yechilmaydi".

"Covid-19" inqirozi sharoitida mamlakatimiz hukumati tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini, xususan, aholiga ijtimoiy nafaqalar to'lash sxemalarini vertikal ravishda kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2020 yilning 1-sentyabridan boshlab davlat budgetidan sarflanadigan "Bolalikdan nogironlar uchun nafaqa", "Nogironlik bo'yicha ijtimoiy nafaqa" va "Qarilik uchun ijtimoiy nafaqa" uchun ijtimoiy nafaqa to'lovlar qiymati 10 foizga oshirildi. Shuningdek, pensiya yoshidagi aholining pensiya to'loving eng kam miqdori ham 10 foizga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda "Covid-19" pandemiysi sharoitida davlat budgetidan sarflangan ijtimoiy nafaqa sxemalarini vertikal kengaytirish yo'nalishlari

Ijtimoiy nafaqa to'lash sxemalari	Covid-19" dan avvalgi" ijtimoiy nafaqa qiymati		Covid-19" davridagi yangi" ijtimoiy nafaqa qiymati		Ijtimoiy nafaqa qiymatining o'zgarishi, foizda
	so'mda	AQSH doll.da	so'mda	AQSH doll.da	
Bolalikdan nogironlar uchun nafaqa	682 466	46,40	350 513	51,00	10
Nogironlik bo'yicha ijtimoiy pensiya	391 286	28,50	030 315	31,00	10
Keksalik pensiyasi (minimal miqdori o'zgartirilgan)	682 466	46,40	350 513	51,00	10
Qarilik uchun ijtimoiy nafaqa	391 286	28,50	030 315	31,00	10

Mamlakatimizda "Covid-19" pandemiysi sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining qamrov darajasini kengaytirish maqsadida ijtimoiy jihatdan nochor/zaif hisoblangan xonadon xo'jaliklariga bir martalik naqd pul shaklidagi ijtimoiy nafaqalar to'lash tartibi joriy etildi. Bunda ijtimoiy jihatdan nochor va kam ta'minlangan oilalarni aniqlash uchun mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va fuqarolarning "temir daftari" deb nomlangan ro'yxatlar shakllantirildi.

Mazkur tadbir doirasida umumiy hajmi qariyb 580 mlrd. so'mlik (57,6 mln. AQSH doll.) mablag' 400 mingga yaqin ijtimoiy jihatdan nochor/zaif hisoblangan oilalar (qariyb 1,7 mln. kishi) o'rtasida taqsimlandi. Natijada mazkur ijtimoiy guruhga kiruvchi jamiyat a'zolarining har biriga 1 450 000 so'm (144 AQSH doll.) berildi. Shuningdek, ushbu tadbir doirasida qo'shimcha 810 000 kam ta'minlangan oilalarda yashovchi 16 yoshgacha bo'lgan har bir bolaga 500 000 so'm (50 AQSH doll.) dan umumiy hajmi 40,2 mln AQSH doll. (405 000 000 000 so'm) hajmidagi mablag'lar taqsimlab berildi (2-jadval).



“Covid-19” pandemiyasi sharoitida O’zbekistonda ijtimoiy jihatdan nochor/zaif xonodon xo’jaliklariga bir martalik ijtimoiy nafaqalar to’lash dasturlari

Ijtimoiy himoya dasturi	Ijtimoiy yordam oluvchilar soni	Ijtimoiy nafaqa qiymati
“Nochor/zaif” oilalar uchun bir martalik naqd pul o’tkazmasi	400 ming oila	Bir xonodon xo’jaligi uchun 1 450 000 so’m (144,0 AQSH doll.) va bir kishi uchun 341 176 so’m (33,90 AQSH doll.)
16 yoshgacha bo’lgan kam ta’minlangan oiladan yoki boquvchisini yo’qtonganlik uchun nafaqa yoki nogiron, deb tasniflangan oiladan 16 yoshgacha bo’lgan bolalar.	(1,7 mln. kishi)	Har biriga 500 000 so’m (50,0 AQSH doll.)

Ijtimoiy himoya qilish obyektlariga fuqarolarning quyidagi toifalari kiradi: nafaqaxo’rlar, ko’p bolali oilalar, yetimlar, homilador ayollar, nogironlar, ishsizlar, harbiydan demobilizatsiya qilinganlar, qochqinlar, boshpanasizlar, budget sohasidan moliyalanuvchi ayrim toifadagi xodimlar va mahkumlar. Ko’rinib turibdiki, aholining bir qismi bir necha toifalarga mansub bo’lishi mumkin. Aholining har bir toifasiga moliyalashtirishning muayyan turini belgilash kerak. Bu turli manbalardan moliyalashtirilishi istisno etmaydi.

Ijtimoiy himoya choralarini olish usuliga ko’ra, ularni pensiya va stipendiyalar, bolali oilalarga beriladigan nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, yetim bolalarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, mahkumlarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, qo’shimcha to’lovlar shaklida moddiy yordam, zaruriy buyumlar va oziq-ovqat mahsulotlari ko’rinishidagi moddiy shakldagi yordam, uyda ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish, bepul ovqatlantirish, bepul davolash, dori vositalari va protez-ortopediya buyumlari bilan bepul yoki imtiyozli ta’minlash, kommunal xizmatlar uchun imtiyozli to’lov, bepul yoki imtiyozli o’qitish yoki qayta tayyorlash, boshpanasizlarni bir kechaga joylashtirish, jamoat transportidan bepul yoki chegirmali foydalanish, nogironlar ishini tashkil etish maqsadida korxonalarni moliyalashtirish shaklida tasniflash mumkin.

Kovid epidemiyasi bilan bog’liq inqiroz hodisalarini aholi muhim qismining, shu jumladan iqtisodiy faollarning ijtimoiy mavqeini yomonlashtirdi. Ko’p bolali va to’liq bo’lmagan oilalar, nogironlar, talabalar va nafaqaxo’rlar aholining eng zaif qatlami bo’lib chiqdi. El-yuruning eng qimmatli boyligi – yurt kelajagining yosh avlod salomatligi va farovonligi havf ostida edi. Hozirgi vaqtida ko’p bolali oilalarga davlat yordamining to’rtta asosiy shakli mavjud.

Birinchidan, oilaga bolalar uchun naqd pul to’lovleri va bolalarning tug’ilishi, boqishi va tarbiyalanishi bilan bog’liq (nafaqa va nafaqalar).

Ikkinchidan, ko’p bolali oilalar, ota-onalar va bolalar uchun mehnat, soliq, uy-joy, kredit, tibbiy va boshqa imtiyozlar.

Uchinchidan, oila va bolalarga bolalar ovqatlari, dori-darmonlar, kiyim-kechak va poyabzallar, homilador ayollar uchun oziq-ovqat va boshqalarni bepul tarqatish.

To’rinchidan, oilalarga ijtimoiy xizmatlar (aniq psixologik, huquqiy, pedagogik yordam, maslahat) ko’rsatish.

Davlat budgetining ijtimoiy sohaga taqsimlanishida mamlakat ta’lim tizimini tashkil etish masalasi markaziy masalalardan biridir.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish O’zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag’lari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish uchun olinadigan to’lovlar hamda qonunchilikda taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Ta’limga xarajatlarda eng katta ulush umumta’lim maktablari xarajatlariga tegishlidir. Hozirgi kun-da umumiyo’rtta ta’lim xarajatlari Davlat budgeti xarajatlarining 14,3 % tashkil etmoqda. Uning tarkibi ham yildin yilga takomillashib bormoqda. Jumladan, joriy 2023 yilda uning tarkibida sezilarli o’zgarishlar bo’lishi kutilmoqda.



O'zbekistondagi barcha umumta'lim maktablari individual smetaga ega, g'aznachilik bo'linmlarida shaxsiy hisobvarag'i mavjud, muhri va imzo huquqiga ega yuridik shaxs hisoblanadi. Maktab budgetining hisobi xarajatlarning bazaviy me'yorlari asosida, maktab miqyosi koeffitsiyenti va markazlashtirilgan yoki gazli isitishga ega maktablар koeffitsiyentlarini qo'llash bilan hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lif muassasalari moliyaviy ta'minotini asosiy qismi budgetdan tashqari mablag'lar tashkil etmoqda hususan biznes va boshqaruv yo'naliishlarida 95-98 foizgacha moliyaviy ta'minot o'qitishning to'lov kontrakt shakli mablag'lariga to'g'ri kelmoqda.


Tadqiqotlarimiz so'nggi besh yilda oliy ta'lif tizimini moliyalashtirish jarayonida asta-sekinlik bilan bozor mexanizmlari joriy etilayotganligini ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lifi tizimini 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi oliy ta'lifni rivojlantirishning yangi bosqichi boshlanganligining dalolatidir.

Tahlillarimizga ko'ra, nodavlat va xorijiy oliy ta'lif muassasalarining tashkil etilishlari, qo'shma ta'lif dasturlari asosida kadrlar tayyorlash tizimining yo'lga qo'yilib, tobora kengayib borishi oliy ta'lif muassasalari o'rtasida erkin raqobatning vujudga kelishiga zamin yaratmoqda. Bu islohotlar oliy ta'lifni moliyalashtirish tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Tahlillarimizga asoslanib aytishimiz mumkinki, respublika oliy ta'lif muassasalariga 2017-2022-yillarda ajratilgan mablag'lar miqdori faqat o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan(2-rasm).



3-rasm. Respublika oliy ta'lif muassasalariga 2017-2022 yillarda ajratilgan mablag'lar miqdori (trln. so'm).

Keltirilgan diagramma ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, davlat budgeti mablag'lar hisobiga moliyalashtirish tahlil davrida 3 barobardan ortiq o'sgan bo'lsa, to'lov kontrakt mablag'lar hisobidan moliyalashtirish 4,5 martaga oshgan. Demak, oliy ta'lif muassasalarini moliyalashtirishda to'lov kontrakt mablag'lar hisobiga moliyalashtirish tizimi ustunlikka ega bo'immoqda. Agar biz ushbu ma'lumotlarni foizlarda tahlil etsak, bu nisbatlar yanada yaqqol namoyon bo'ladi (4-rasm).



4-rasm. Respublika oliy ta'lif muassasalariga 2017-2022-yillarda ajratilgan mablag'lar ulushi (foiz).



Rasm ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2017-yilda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning 34 foizini budget mablag'lari, 66 foizini to'lov kontrakt mablag'lari tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu nisbat 27 ga 73 ni tashkil etgan. Bu mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda budget mablag'larini salmog'ini pasaytirish va o'z-o'zini moliyalashtirish tendensiyasi davom ettirilayotganligini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasasining asosiy moliyaviy rejasini smeta hisoblanadi. Unda budget ajratmalari ning umumiy hajmi, maqsadli yo'naltirilganligi va choraklar bo'yicha taqsimoti aks ettiriladi. Smetada o'quv muassasasi, uning o'quv-moddiy bazasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar keltiriladi. Jamlanma rejulashtirishda xarajatlar har bir talabaga me'yorlar hisobi asosida hisob-kitob qilinadi. Buning uchun rejulashtirilayotgan yil uchun talabalar kontingenti bitiruvchilar, qabul va saralashni hisobga olgan holda o'chanadi.

Davlat budgetining ijtimoiy sohaga taqsimlanishida mamlakat ijtimoiy-madaniy tizim sohasidga yo'naltiriladigan xarajatlar ham muhim axamiyatga ega. Ijtimoiy-madaniy rivojlanishga quyidagilar kiradi: madaniyat, san'at, ommaviy axborot vositalari, yoshlar siyosati faoliyati va ijtimoiy ta'minot.

Madaniyat va san'at muassasalarini moliyalashtirishga budget xarajatlari ijtimoiy-madaniy tadbirlarga xarajatlar tarkibida rejulashtiriladi. Madaniyat va san'atning funksiyalari insonning ma'naviy boyishida bo'lib, bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy natijalarga ta'sir ko'rsatadi. Madaniyat sohasida amal qilayotgan qonun hujjatlari davlat madaniy faoliyat, madaniy boyliklar va ne'matlar jamiyatga yetib borishi uchun imkoniyat yaratishni ta'minlashini nazarda tutadi. Shu sababli davlat:

- davlat va ba'zi hollarda nodavlat madaniyat tashkilotlarini budgetdan moliyalashtirishni amalga oshiradi;
- notijorat madaniyat tashkilotlariga soliq solishning alohida tartibini qo'llaydi;
- madaniyatni rivojlantirishga o'z mablag'larini sarflayotgan xo'jalik subyektlari va jismoniy shaxslarga soliq imtiyozlari berish orqali madaniyatning rivojlanishini rag'batlantiradi;
- madaniyat sohalarida xayriyaning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Madaniyat va san'at muassasalarini moliyalashtirish turli darajadagi budgetlar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi va san'at, ommaviy axborot vositalari, muzeylar, kutubxonalar, nashriyotlar va boshqalarni saqlash xarajatlarini mujassamlashtiradi.

Budget ajratmalarini aniqlash usuli shundaki, madaniy faoliyat emas, balki aniq madaniyat muassasasi moliyalashtiriladi. Madaniyat va san'at muassasalarini moliyalashtirish budget mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi, shu bilan birga ular pulli xizmat ko'rsatilishi, homiylik yordami va boshqalar evaziga qo'shimcha moliyaviy resurslar manbalariga egadirlar. Barcha madaniyat va san'at muassasalari daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzadi. Xarajatlar tashkilotning faoliyati bilan tavsiflanadi. Smetada barcha 4 guruh xarajatlari rejulashtiriladi. Muzeylar kelajakdagagi xarajatlarni baholash va zarur bo'lgan budgetdan moliyalashtirish hajmini belgilashda katta qiyinchiliklarga olib keladi, chunki ularning faoliyati shart-sharoitlari turlicha va daromadlarni oldindan bashorat qilib bo'lmaydi. Smetani tasdiqlashda budget hajmi va bir necha yilga uning ijrosi hisobga olinadi.

Teatr va konsert tashkilotlari bo'yicha budgetdan moliyalashtirish hajmini hisob-kitob qilishda, birinchi navbatda xizmat ko'rsatiladigan tomoshabinlar soni va biletlarning o'rtacha narxiga bog'liq bo'lgan kelib tushishi rejulashtirilayotgan daromadlar hajmi aniqlanadi. Tomoshabinlar soni zal sig'imi, rejulashtirilayotgan spektakllar soni va ularga tomoshabinlarning o'rtacha tushishini bir-biriga ko'paytirish orqali aniqlanadi:

Ts = Zs x Ss x Ot,

Bu yerda:

Ts - tomoshabinlar soni;

Zs – zal sig'imi;

Ss – rejulashtirilayotgan spektakllar soni;

Ot – tomoshabinlarning o'rtacha tushishi.

Barcha spektakllar ertalabki, kunduzgi va kechkilarga bo'linadi. Biletning narxi spektaklni o'tkazish vaqtiga bog'liqdir.

Ijtimoiy ta'minotga xarajatlar – davlat budgetining nogironlarni o'qitish va ishga joylashtirish; qariyalar, nogironlar va nogiron bolalar uchun uy-internatlarni saqlash va ta'minlash; protezlash; no-



gironlarning xarajatlarini qoplash; uyda ijtimoiy yordam ko'rsatishning hududiy markazlari va bo'linmalarini moliyalashtirish; markazlashtirilgan buxgalteriyalar va boshqa ijtimoiy ta'minot tadbirlarini ta'minlash xarajatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Ijtimoiy ta'minot xarajatlarining asosiy qismi qariyalar, nogironlar, boshqa toifadagi muhtoj fuqarolarga uy-internatlar, ijtimoiy boshpana va boshqa muassasalar tarmog'i orqali turli xil ijtimoiy xizmatlar (tekinga yoki imtiyozli ravishda) ko'rsatish bilan bog'liqdir. Ularni ta'minlash va saqlash uchun xarajatlar individual smetalar asosida rejalashtiriladi. Har bir ijtimoiy ta'minot muassasasi quyidagi ko'rsatkichlarga binoan xarajatlar smetasini, har bir xarajatlar moddalari bo'yicha majburiy ilovalarni tuzadi:

- joylar soni;
- ta'minlanayotganlar soni;
- faoliyat yuritilayotgan kunlar soni;
- koyka-kunlar soni;
- shtat birliklari soni.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy soha tarmoqlari juda keng ko'lamli bo'lib, uni rivojlantirishning eng asosiy manbasi qayta taqsimlanadigan davlat budgeti mablag'lari hisoblanadi. Jahon amaliyotida ushbu sohani rivojlantirish uchun davlat budgetidan juda katta hajmda mablag'lar ajratiladi. Mamlakatimizda ham budget xarajatlarining yarmidan ko'pi mazkur sohani rivojlantirishga sarflanayotganligidan ham ijtimoiy sohaning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini tushunish mushkul emas. Ayni shuning uchun ham milliy iqtisodiyotda taqsimot munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirishda ijtimoiy sohani moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratish masadga muvofiq.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>
2. Бузрукхонов С.М. Инновацион иқтисодиётга ўтиш шароитида олий таълимни молиялаштиришини такомиллаштириш // иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши автореферати. –Т.: 2022. -20 б.;
3. Синягин А. Как оценить общественные услуги. // Эксперт. 2004. №19. -с.72
4. Стиглиц Дж.Ю. Экономика государственного сектора. -М. 1996. -с.371
5. Фуқаролар учун бюджет: 2023 йил учун тасдиқланган бюджет. БМТ Тараққиёт Дастури (БМТД) ва Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги “Ўзбекистонда барқарор ривожланишини молиялаштириш” кўшма лойиҳасини амалга ошириш дастури. –Т.: 2023. -15 б. (www.uz.undp.org).
6. Якобсон Л.И. Экономика общественного сектора основы теории государственных финансов. -М.: Финстатинформ. 1995.
7. Ўзбекистонда камбағаллик муаммоси. Сабаблар ва ечимлар. <https://kun.uz/news/2021/05/22/ozbekistonda-kambagallik-muammosi-sabablar-va-yechimlar>



Yashi

IQTISODIYOT
Va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

TARAQQIYOT PROGESS PROPEC

